

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish.....	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi.....	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli.....	302
M.Nasritdinova	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni.....	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni.....	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
М.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli.....	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes.....	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf.....	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari.....	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 556.3(94)

AVSTRALIYA MATERIGI YER USTI SUVLARI TARQALISHINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (DARYOLAR MISOLIDA)**РЕГИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПОВЕРХНОСТНЫХ ВОД МАТЕРИКОВ АВСТРАЛИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕК)****REGIONAL CHARACTERISTICS OF THE DISTRIBUTION OF AUSTRALIAN MAINLAND SURFACE WATER (EXAMPLE OF RIVERS)****Ergashev Anvar Karimovich** 

Buxoro davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Avstraliya materigidagi daryolar va ushbu daryolarning geografik joylashuvi, daryolarning o'lchamlari hamda ularning oqim hajmiga geografik jihatdan to'xtalib o'tilgan. Maqolani tayyorlashda bir qancha darslik, atlaslar va internet sahifalaridan foydalanildi. Ushbu maqoladan Oliy ta'limning geografiya, gidrologiya darslarida hamda materikning ichki suvlariga qiziquvchilar uchun foydalansa bo'ladi.

Аннотация

В этой статье географически рассматриваются реки материковой части Австралии и географическое положение этих рек, а также размеры рек и их сток. При подготовке статьи было использовано несколько учебников, атласов и интернет-страниц. Эта статья может быть использована на уроках географии, гидрологии в высших учебных заведениях, а также для тех, кто интересуется внутренними водами материка.

Abstract

This article covers the geographical location of rivers and these rivers in the Australian mainland, and the size of the rivers and the volume of their flows geographically. A number of textbooks, atlases and internet pages were used in the preparation of the article. This article can be used in geography, hydrology classes of Higher Education and for those interested in the inland waters of the mainland.

Kalit so'zlar: Gidrosfera, yerusti suvlari, Berdekin, Belyando, Fitsroy, Devson, Brisben, Klarens, Mekley, Fitsroy, Izdel, Ord, Viktoriya, Dely, Meriy, Ashberton, De Grey, Forteskyu, Gaskoyn, Murrey, Darling.

Ключевые слова: гидросфера, поверхностные воды, бердекин, беляндо, Фицрой, Девсон, Брисбен, Кларенс, мекли, Фицрой, издел, орд, Виктория, Дели, Мэри, Эшбертон, де Грей, Фортеस्कью, Гаскойн, Мюррей, Дарлинг.

Key words: hydrosphere, surface water, Berdekin, Belyando, Fitzroy, Devson, Brisbane, Clarence, McClay, Fitzroy, Izdel, Ord, Victoria, Deley, Mary, Ashberton, De Grey, Fortescue, Gascoyne, Murray, Darling.

KIRISH

Biz bilamizki, gidrosfera suvi, asosan, 2 qismdan iborat. Dunyo okeanidagi suvlar va quruqlikdagi suvlar. Gidrosfera suvining asosiy qismi, ya'ni 96,5% Dunyo okeanida, qolgan 3,5% i quruqlikdagi suvlar hisoblanadi. Quruqlik suvlari yerustida va yerostida joylashgan. Bular birgalikda materik ichki suvlarini tashkil etadi. Ushbu maqolada Avstraliyaning yerusti suvlariga, asosan, daryolariga geografik tavsif berib o'tilgan. Maqolani yoritishda turli geografik atlaslar va internet sahifalaridan (google earth) foydalanilgan. Mavzuni o'rganishdan asosiy maqsad Avstraliya daryolarini relyef va iqlimga bog'liq ravishda joylashuvini o'rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avstraliya materigi va unga yaqin orollardagi gidrografik oqim xususiyatlari turlicha bo'lib, Avstraliya, Tasmaniya, Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya daryolarining oqim hajmi 1600 km³ ga, oqim qalinligi esa 184 mm ga teng. Birgina Avstraliya materigining o'zida orollarisiz oqim hajmi atigi 350 km³, oqim qalinligi 46 mm, ya'ni boshqa materiklardagidan bir necha barobar kam. Bunga

sabab materikning katta qismiga *yog'in kam tushadi*, materikda *baland tog'lar va doimiy muzliklar* kam rivojlangan [1; 66-bet].

Materikda asosiy oqim hajmi daryolar tizimiga to'g'ri keladi. Avstraliyada sersuv katta daryolar yo'q, chunki materikning katta qismi quruq tropik mintaqada joylashgan. Materikning 60% maydoni oqmas ichki berk havzaga, 7% i Tinch okean va 33% i Hind okeani havzasiga qaraydi (1-rasm). Materikning bosh suvayirg'ichi *Katta Suvayirg'ich tizma* bo'lib, uning yonbag'irlaridan eng katta va sersuv daryolar oqib tushadi, bu daryolar deyarli butunlay yomg'ir suvidan to'yinadi.



1-rasm. Avstraliya materigining ichki suv havzalari

Katta Suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'ri qisqa va tik bo'lganligidan Tinch okeanining Marjon va Tasman dengizlariga qisqa, tezoqar va egri-bugri o'zanli daryolar oqib tushadi. Ushbu daryolar yil bo'yi har holda bir tekisda to'yinganligidan Avstraliyaning eng sersuv daryolari hisoblanadi, bu daryolarda yozgi maksimum oqim aniq ifodalangan. Ba'zi bir daryolar tog' tizmalarini kesib o'tib, ostona va sharsharalar hosil qiladi, daryolarning uzunligi (Fitsroy, Berdekin, Xanter) bir necha yuz kilometrga yetadi. Ularning ba'zi birlarida quyi oqimida 100 km va undan ortiq masofada kemalar qatnaydi hamda quyar joyiga okeandan kemalar kirib kela oladi. Avstraliyaning Tinch okeaniga quyiluvchi daryolari quyidagilardan iborat (shimoldan-janubga): *Berdekin, Belyando, Fitsroy, Devson, Brisben, Klarens, Mekley* [4; 249,250].



2-rasm. Avstraliyaning daryolar xaritasi

NATIJA VA MUHOKAMA

Berdekin daryosi materikning shimoli sharqidagi Ingem shahri yaqinidan, dengiz sathidan 619 m balandlikdan boshlanadi va quyilish joyi esa Apstart buxtasi, ya'ni Tinch okeanining Marjon

GEOGRAFIYA

dengiziga quyiladi. Daryoning uzunligi 732 km bo'lib, havzasining maydoni esa 129 700 kv.km ni tashkil etadi [6;].

Belyando daryosi Katta suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'ridan shimol tomonga qarab oqib Berdekin daryosiga o'ng tomondan quyiladi. Daryoning uzunligi Belyando daryosiga qadar taxminan 360 km, havzasining maydoni esa 35 000 kv.km ga teng[7;]

Fitsroy daryosi materikning sharqiy qismidan oqib o'tib 480 km masofada Tinch okeanidagi Katta to'siq rifiga borib quyiladi. Daryo havzasi 142,665 kv.km maydonga teng. Daryoning o'rta oqimiga o'ng tomondan Devson daryosi kelib quyiladi. Devson daryosi janubdan shimolga tomon oqib 587 km masofada oqib Fitsroy bilan qo'shiladi. Daryoning manbasidan quyilish joyigacha 64 ta irmoq, shu jumladan, Don daryosi qo'shiladi. Daryo havzasining maydoni 50,8 kv.km ga teng. Daryo bo'yida Ekspeditsiya milliy bog'i va Jarlik milliy bog'i qo'riqlanadigan hududlari joylashgan[3; 1-5].

Brisben daryosi Sharqiy Avstraliyaning Konondeyl tog' tizmasining Stenli tog'idan 213 m balandlikdan boshlanib, Tinch okeanining Marjon dengiziga borib quyiladi. Daryoning uzunligi 344 km bo'lib, havzasining maydoni esa 13 600 kv km ga teng.

Klarens nomidagi daryo Avstraliya materigida va bundan tashqari Alyaskada, Yangi Zellandiyada, Fransiya davlatlarida joylashgan. Klarens daryosi Katta suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'ridan boshlanib, Tinch okeanining Marjon dengiziga quyiladi. Daryoning uzunligi 394 km, havzasining maydoni esa 22 850 kv km ga teng [8;].

Mekley daryosi Katta suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'ridan boshlanib, Tinch okeanining Tasman dengiziga quyiladi. Daryoning uzunligi 298 km, havzasining maydoni esa 11 287 kv km ga teng[9;].

Shimoliy Avstraliyaning Arafur va Timor dengizlariga quyiluvchi daryolari ham sersuv. Bular orasida Katta Suvayirg'ich tizmaning shimoliy qismidan oqib tushadiganlari ancha katta daryolar hisoblanadi. Materikning shimol qismidagi daryolarida yozgi va qishki yog'inlar miqdorining keskin farq qilganligi sababli, sharqdagi daryolarga nisbatan ularning suv rejimi doimiy emas. Ular yozgi musson yomg'irlari vaqtida to'lib oqadi va ko'pincha qirg'oqdan chiqib toshadi. Qishda ular kambar kichik oqimlarga aylanadi va yuqori qismlari ba'zi joylarda qurib qoladi. Shimolning eng yirik daryolari bo'lgan *Flinders*, *Viktoriya*, *Ord* daryolarining quyi oqimida yozda bir necha o'nlab kilometr masofada kemalar qatnaydi[4; 249,250].

1-jadval

Materikning shimoliy qirg'oqlariga quyiluvchi daryolari (g'arbdan-sharqqa)

No	Daryo nomi	Uzunligi	Havzasining maydoni
1	Fitsroy	733 km	93 829 km kv
2	Izdel	206 km	5540 km kv
3	Ord	320 km	46 100 km kv
4	Viktoriya	780 km	87 900 km kv
5	Deliy	354 km	53 708 km kv
6	Meriy	225 km	8000 km kv
7	Janubiy Aligator	160 km	11 917 km kv
8	Sharqiy Aligator	160 km	15 867 km kv
9	Roper	400 km	81 794 km kv
10	Artur	521 km	20 010 km kv
11	Gregory	321 km	24 179 km kv
12	Licherd	630 km	32 878 km kv
13	Klonkarri	900 km	47 344 km kv
14	Flinders	1004 km	109 000 km kv
15	Norman	420 km	50 445 km kv
16	Gilbert	887 km	46 810 km kv
17	Steyten	383 km	25 732 km kv
18	Mitchel	750 km	71 757 km kv

Jadval muallif tomonidan tayyorlandi

Materikning g'arbiy tomonida ham bir qancha daryolar joylashgan bo'lib, ushbu daryolarning barchasi Hind okeaniga borib quyiladi. Daryolar kam suvli bo'lib, asosan yog'ingarchilik vaqtida o'zandan to'lib oqadi, qolgan paytda o'zanda suv kamayadi bazan esa qurib qoladi. Materikning iqlim xaritasiga qaraydigan bo'lsak, g'arbiy hududlarida yiliga 100 mm dan, okean sohiliga tomon yog'in miqdori 400 mm gacha ortib boradi[5; 2-3].

G'arbiy Avstraliyadagi eng uzun daryo *Gaskoyn* hisoblanadi. Daryo G'arbiy Avstraliya yassi tog'ligining 514 m balandligidan boshlanib, Hind okeanining Shark qo'ltig'iga quyiladi. Daryoning uzunligi 978 km, havzasining maydoni esa 68,3 ming kv km. Yilning quruq paytida daryo suvi kamayib ketadi, may-iyul oyidagi yog'ingarchilik paytida esa suvi ko'payadi. Daryoning o'rtacha suv sarfi $20m^3$ ni tashkil etadi [11;]. Materikning g'arbiy qismidagi daryolar ro'yxati quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

G'arbiy Avstraliyaning daryolari

No	Daryo nomi	Uzunligi	Havzasining maydoni
1	Ashberton	825 km	66 850 km kv
2	De Grey	193 km	56 720 km kv
3	Forteskyu	760 km	49 759 km kv
4	Gaskoyn	978 km	68 300 km kv
5	Merchison	780 km	91 252 km kv

Jadval muallif tomonidan tayyorlandi

Materikning janubi-g'arbida ham doimiy oqar suvlar bor, ularning hammasida oqim juda beqaror va yozgi qurg'oqchilik faslida ayrim qismlarida ifloslangan bir qancha *ko'lchalar* hosil bo'ladi.

Suon daryosi Avon daryosi nomi bilan Janubi-G'arbiy Avstraliyaning Korridjin shahridan janubda joylashgan tog'li hududdan boshlanadi. Keyinchalik u avval shimoli-g'arbiy, so'ngra janubi-g'arbiy yo'nalishda Tortem va Pyotr shaharlari orqali oqib, Fremantl aholi punkti yaqinidagi Hind okeaniga quyiladi. Daryo uzunligi 360 km ni tashkil qiladi (Suon daryosining o'zi 95 km ga teng). Suonning bir nechta irmoqlari bor, ularning eng kattasi Avon, Xelena va Kanning daryolari. Suon daryosining o'zida hech qanday sun'iy to'siqlar bo'lmasa-da, uning irmoqlari-Kanning va Xelena suv havzasini tartibga solish va suv omborlarini yaratish uchun to'g'onlar bilan to'sib qo'yilgan. Yoz va kuz oylarida daryo quriydi. Daryo havzasining maydoni taxminan 141 000 km^2 [12].

Avstraliyaning *ichki cho'l va chalacho'l qismlarida* doimiy oqar suvlar yo'q. U yerlarda plyuvial davrdagi nam sharoitda tarkib topgan, qadimda rivojlangan oqar suvlar qoldiqlaridan iborat *quruq (kriklar) o'zanlar* mavjud. Bu quruq o'zanlar yomg'irlardan keyin qisqa muddatga suvga to'ladi. Kriklar Markaziy tekislikda ko'p bo'lib, ularning asosiylari Kuper-Krik, Eyr-Krik, Dayamantina va Jorjina daryolari hisoblanadi. Bu yerdagi daryolar oqmas, qurib qoladigan Eyr ko'li tomonga yo'nalgan[2; 65,66].

Materikning janubida daryolar ancha kam joylashgan bo'lib, Nallarbor tekisligida hatto vaqtli oqar suvlar ham yo'q, bu yerda oqimi Katta Avstraliya qo'ltig'i tomonga yo'nalgan yer osti suvi oqimi shakllangan. Lekin materikning eng uzun va eng sersuv daryosi hisoblangan Murrey aynan materik janubiga kelib quyiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Materikning eng katta daryo sistemasi Murrey va uning eng katta irmog'i Darling daryosidir. Bu daryolar Katta Suvayirg'ich tizmasining g'arbiy qismidan boshlanib janubiy pasttekislikda bir-biri bilan qo'shiladi. Darling qurg'oqchilik davrida quyi oqimida qurib qoladi.

Murrey Darlingga nisbatan qisqa bo'lsa ham, unga qaraganda ancha sersuv bo'lganligidan bu tizimning asosiy daryosi hisoblanadi. Murrey daryosi Avstraliya Alp tog'laridan boshlanib, [Hind okeanining](#) Aleksandrina qo'ltiqlagunasiga quyiladi. Murrey daryosining uzunligi 2570 km. Darling daryosi Murreyning o'ng irmog'i bo'lib, uzunligi 2830 km, ikkala daryo havzasining maydoni 1072 ming km^2 . Murreyning Darling quyilganidan quyiroqdagi o'rtacha suv

GEOGRAFIYA

sarfi 270 m³/sek. Murreyning ikkinchi yirik o'ng irmog'i Mirrambiji bo'lib, uzunligi 1690 km ni tashkil qiladi.

Murrey-Darling daryo tizimiga kiruvchi barcha daryolarning suv rejimi juda notekis. Ular, asosan, yomg'ir suvi hisobiga to'yinadi va qisman Avstraliya Alp tog'lariga yog'adigan qordan suv oladi. Shu sababli oqim maksimumi yoz fasliga to'g'ri keladi, bu vaqtda Murrey va Darling daryolari sathi ko'tariladi hamda ular yassi pasttekislikda toshadi, ba'zan halokatli toshqinlarga sabab bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, materikdagi asosiy suv manbasi daryolar hisoblanib, daryolar materikning iqlimi va yer usti tuzilishiga bog'liq holda joylashgan. Avstraliya davlatining qishloq xo'jaligi ham daryolar va uning oqim hajmiga bog'liq holda shakllangan. Daryolarning oqim hajmi relyef va iqlim mintaqalariga bog'liq holda turli davrlarga to'ri keladi. Materik xaritasiga nazar soladigan bo'lsak materikda 30 ga yaqin daryolar mavjud. Lekin ushbu daryolarning aksariyati kam suvli kichik daryolar hisoblanadi.

Shu bilan birga, daryolar juda ko'p miqdorda nuroq jinslarni oqizadi va daryo o'zani bo'ylab yotqizib, marzalar hosil qiladi. Marzalar bosh daryoga irmoqlarning quyilishini qiyinlashtiradi. Tekislikda daryolar o'zanlari ilonizi shaklida va ko'p tarmoqlarga bo'linib oqadi. Murrey va Darling oralig'idagi butunlay daryo keltirmalaridan tuzilgan yerlarni tarmoqlar turli tomonga kesib o'tgan va yozgi toshqin vaqtida bu yerlarni suv bosadi. Qishki quruq davrda Murrey havzasidagi daryolar juda sayozlanib qoladi. Bosh daryo sathi juda pasayadi, biroq, odatda, daryoda doimiy suv oqimi saqlanadi. Faqat juda ham qurg'oqchil kelgan yillardagina Murreyning yuqori oqimidagi ayrim qismlari butunlay qurib qoladi.

Murrey-Darling tizimining daryolari katta xo'jalik ahamiyatiga ega. Ularning suvidan pasttekislikning serhosil, lekin qurg'oqchil yerlarini sug'orishda keng foydalaniladi, shu maqsadda yirik suv omborlari qurilgan. Daryolarning beqaror rejimi va juda ko'p oqiziq yotqizishi kema qatnovini qiyinlashtiradi. Masalan, Murrey daryosining quyar joyida oqiziq jinslarning ko'pligi tufayli, dengiz kemalari bu yerga butunlay kela olmaydi, Darlingning quyi qismida kichik kemalar qatnay oladi xolos.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vaxobov X., Abdulqosimov A.A., Alimkulov N., R. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2020
2. Vlasova T.V. Materiklar tabiiy geografiyasi. Darslik. T.: O'qituvchi, 1981
3. Manual of Physical Geography of Australia
4. Большой иллюстрированный атлас мира. Москва: Издательство АСТ, 2022. 249-250 ст
5. Ergashev A.K., Orifov B.U. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar, I jild 6-son. 2023
6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B5%D1%80%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D0%BD_\(%D1%80%D0%B5%D0%BA%D0%B0\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B5%D1%80%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D0%BD_(%D1%80%D0%B5%D0%BA%D0%B0))
7. https://ru.fwiki.wiki/wiki/Belyando_River
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/Clarence_River_\(New_South_Wales\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Clarence_River_(New_South_Wales))
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Macleay_River
10. www.nationalgeographic.com/education
11. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B0%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9%D0%BD_\(%D1%80%D0%B5%D0%BA%D0%B0\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B0%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9%D0%BD_(%D1%80%D0%B5%D0%BA%D0%B0))
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BD%D0%BE%D1%83%D0%B8-%D0%A0%D0%B8%D0%B2%D0%B5%D1%80>